

Mini futbol musobaqasi

Avval xabar berganimizdek, talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish ularni sportga, sog'lom turmush tarziga keng jalb qilish maqsadida, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 26.02.2018dan 03.03.2018ga qadar 1-bosqich talabalari o'rtasida sportning mini futbol turidan musobaqalar o'z nihoyasiga yetdi.

Musobaqada barcha fakultetlarning jamoalari va mehmon jamoa Toshkent moliya institutining jamoasi ham ishtirok etdi.



Musobaqada jami 8 ta jamoa o'z mahoratlarini namoyon etishdi. Musobaqani 26.02.2018 kuni "Jismoniy madaniyat va sport" kafedrasi mudiri M. Norqobilov olib berdi va barcha ishtirokchilarga omad yor bo'lishini hamda ishtirokchilarni bir-biriga hurmatda bo'lishga chaqirdi.

Shu yo'sinda musobaqalar o'z nihoyasiga yetdi va yakunda faxrli 3-o'rinn sohibi "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" fakulteti qo'lga kiritdi.

Faxrli 2- o'rinn sohibi "Qishloq va suv xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish" fakulteti jamoasi qo'lga kiritdi va 1- o'rinn sohibi "Gidrotexnika qurilishi" fakulteti jamoasi qo'lga kiritdi. Musobaqa yakunida "Jismoniy madaniyat va sport" kafedrasi mudiri M. Norqobilov, "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" dekani B.Norov "Qishloq va suv xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish" fakulteti, dekani A.Gapparov "Gidrotexnika qurilishi" fakulteti dekani B.Xasanovlar musobaqada g'olib va sovrindor bo'lgan jamoalarni taqdirlashdi.

Shuningdek, ularga kelajakdag'i faoliyatlariga ulkan zafarlar tilb qolishdi.

**"Jismoniy madaniyat va sport" kafedrasi mudiri M.Norqobilov axboroti
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**